



**NIKOHDAN AJRALISH MASLASINI BIR TOMON CHET EL
FUQAROSI BO'LGANDA QANDAY TARTIBDA HAL QILINISHINING
QONUNCHILIK HUJJATLARI ASOSIDA TAHLILI**

*A'zamov Dilmurod - Yashnobod tuman adliya bo'limi Yuridik xizmat
ko'rsatish markazi Bosh yuriskonsulti*

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 236-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi hududida tomonlardan biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, ikkinchi taraf chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs o'rtasidagi, shuningdek tomonlarning ikkalasi ham chet el fuqarolari bo'lganda ular o'rtasidagi nikohdan ajratish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashab turgan tomonlarning biri ikkinchi tomon O'zbekiston Respublikasining fuqarosi O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashab turgan eri (xotini) bilan tuzilgan nikohdan, mazkur shaxs qaysi davlat fuqarosi ekanligidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasi sudida ajralish huquqiga ega hisoblanadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 42-moddasi va 236-moddasiga binoan, Er-xotin o'rtasida mehnatga layoqatsiz muhtoj er yoki xotinga moddiy ta'minot berish to'g'risida yoki ularning birgalikdagi umumiy mulki bo'lgan mol-mulkni bo'lish to'g'risida nizo bo'lmaganda fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida nikohdan ajralish mumkin bo'lgan hollarda bunday nikohdan ajralish O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalarida yoki konsullik muassasalarida amalga oshirilishi mumkin.

Shuningdek, Oila kodeksining 236-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'rtasidagi nikohdan ajratish yoki O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida chet el fuqarolari o'rtasidagi nikohdan ajratish tegishli chet el davlatining



qonunchiligiga rioya etilgan holda amalga oshirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e'tirof etiladi.

Endi bevosita fuqarolardan kelgan ushbu savolga asosan, ushbu masalani tahlil qilsak,,unga ko'ra, fuqarodan savol quyidagicha: tomonlardan biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiladi ikkinchi taraf chet el fuqarosi va chet elda istiqomat qiladi. Ushbu vaziyatda nihok O'zbekiston Respublikasida qayd etilgan. Orada nizo kelib chiqib nikoh bekor qilish zaruriyatga aylandi. Ushbu vaziyatda nikohdan ajralish qay tartibda hal qilinadi?

Oila kodeksining 236-moddasi va O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2013-yil 31-dekabrda 400-mh-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan **“Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida ish yuritish tartibi to'g'risida”gi** yo'riqnomaning 96-bandiga ko'ra, nikohdan ajralishi ikkala tomonning kelishuviga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi FHDYo oragmlari va nizo bo'ladigan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Sudida yoki Respublikasi Oila kodeksining 42-moddasi va 236-moddasiga binoan, Er-xotin o'rtasida mehnatga layoqatsiz muhtoj er yoki xotinga moddiy ta'minot berish to'g'risida yoki ularning birgalikdagi umumiy mulki bo'lgan mol-mulkni bo'lish to'g'risida nizo bo'lmaganda fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida nikohdan ajralish mumkin bo'lgan hollarda O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalarida yoki konsullik muassasalarida yoki chet el FHDYo organlari, nizo bo'ladigan bo'lsa, chet el sudida ko'rib chiqiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu savolga ikki xil yechim berish mumkin:

1. Bunda taraflar kelishuviga bo'ra, ikkinchi tarafning ishonchnomasi orqali, birinchi tomon FHDYo yoki sud organlariga ajrashish bo'yicha ariza berishi mumkin. Biroq, Chet elda yashovchi fuqaro tomonidan berilgan hamda chet tilida tuzilgan **ishonchnoma belgilangan tartibda legalizatsiya qilingan yoki apostil qo'yilgan bo'lishi lozim.**

2. Tomonlarning biri chet el FHDYo organi, nizo bo'ladigan bo'lsa, chet el sudiga ariza bilan murojaat qiladi. FHDYo yoki sud tomonidan ularning nikohi bekor qilingandan so'ng, tomonlarning nikohdan ajratilganligini tasdiqlovchi hujjati



(guvohnoma, ma'lumotnoma, sertifikat va h.k.)ning legalizatsiya qilingan yoki apostil qo'yilgan kseronushxasi uning tarjimasi bilan birga FHDY organiga taqdim etishi lozim. Bunda FHDY organi tomonidan nikoh tuzilganligi haqidagi dalolatnoma yozuviga tegishli yozuv kiritiladi hamda unga bu haqda ma'lumotnoma beriladi.

Shuni nazarda tutish kerakki, nikohdan ajralganlik haqidagi guvohnoma qayd etilgan nikohdan chet el davlatining vakolatli organi qarori asosida ajrashgan shaxslar nikohdan ajratilganligini tasdiqlovchi hujjati (guvohnoma, ma'lumotnoma, sertifikat va h.k.)ning legalizatsiya qilingan yoki apostil qo'yilgan kseronushxasi uning tarjimasi bilan birga FHDY organiga taqdim etishi lozim. Bunda FHDY organi tomonidan nikoh tuzilganligi haqidagi dalolatnoma yozuviga tegishli yozuv kiritiladi hamda unga bu haqda ma'lumotnoma beriladi.

Shuningdek, Nikohdan ajralganlik haqida takroriy guvohnoma berilmaydi. Zarur hollarda ajrashgan shaxslarning ota-onalari va farzandlariga ularning arizasi asosida nikohdan ajralganlik qayd etilganligi haqida ma'lumotnoma beriladi.

Nikohdan ajralganlikni qayd etganlik uchun undiriladigan to'lovlar haqiga

Manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 01.09.1998-yilda kuchga kirgan, <https://lex.uz/docs/-104720>.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ,20.10.2023 yildagi 550-son qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari to'g'risida"gi nizom, <https://lex.uz/docs/-6638940>.
3. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2013-yil 31-dekabrda 400-mh-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan **"Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida ish yuritish tartibi to'g'risida"gi YO'RIQNOMA**, <https://lex.uz/docs/-2308332>.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining, 20.07.2011 yildagi "Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi 06-son qarori, <https://lex.uz/docs/-2414114>.